



"TASDIQLAYMAN"

Samarqand MGQE boshlig'i v.b.

S.Yu. Nematullayev

2024 yil

Samarqand Markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasi
xodimlari safida o'tkazilgan davra suhbati

B A Y O N N O M A S I № 22

05.11.2024 yil

Samarqand shahri

Qatnashdilar: S.Yu. Nematullayev - Samarqand MGQE boshlig'i.

O.O.Eshniyozov-Samarqand MGQE bosh muhandisi, markaziy va dala ekspeditsiyalari ishchi xizmatchilari, jami 67 nafar xodim.

Mavzu: "9-dekabr Butun jahon korrupsiyaga qarshi kurashish kuni"

("O'zbek geologiya qidiruv" AJ tomonidan taqdim etilgan elektron targ'ibot materiallaridan foydalanildi).



Davra suhbatini Samarqand MGQE boshlig'i S.Yu. Nematullayev ohib, kun tartibini e'lon qildi va kun tartibidagi masala yuzasidan ya'ni "O'zbek geologiya qidiruv" AJ Samarqand MGQEda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida xususan, jamiyatning manfaatlar to'qnashuvini boshqarish haqidagi Siyosati, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosati, Axloq kodeksi to'g'risida ma'lumot berdi va korrupsiya holatlarining har qanday ko'rinishiga ishchi-xodimlarda murosasizlik hissini

uyg‘otish zarurligini, bu illatga qarshi kurashishda barcha ishchi-xodimlar mas’ul ekanligini ta’kidladi.



Samarqand MGQE topshiriqlarning ijrosini nazorat qilish bo‘yicha inspektori A.B.Olmasov, o‘z so‘zida korrupsiyaga qarshi kurashda va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirishda jamoatchilikning ishtirokini kengaytirish zarurligini tushuntirdi.



Shuningdek, u korrupsiyaviy xavf va o‘zgaruvchan korrupsiya singari tushunchalarga izoh berdi hamda korrupsiyaning shakli va ko‘rinishlari borasida ma’lumot berdi. Internet ijtimoiy tarmoqlari, raqamli texnologiyalar orqali sodir etilayotgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar borasida to’xtaldi. Korrupsiya fuqarolarimizda vatanparvaplik tuyg‘usini va milliy g‘urur hissini so’ndiradi, jamiyatda amalga oshiriladigan islohotlarga befarqlikni o‘yg‘otadi, kelajakka ishonchsizlik ruhini barpo etadi, ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi, mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro‘yiga putur yetkazadi.



Jinoyatga jazo muqarrarligini ta’kidladi hamda korrupsiyaga va korrupsiyaga oid jinoyatlar tushunchalariga izoh berdi.

Davra suhbati davomida O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida”gi 2024 yil 5 iyundagi 931-sonli Qonunining mazmun-mohiyati tushuntirilib, manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganligi uchun va ushbu qonunchilik talablarini bajarmaslik holatlarida qo‘llaniladigan jazo choralarini va O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksining 193-4-moddasiga doir ma’lumot taqdim qildi va O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 121-moddasining mazmun-mohiyati tushuntirildi.

**Toshiriqlarning ijrosini nazorat
qilish bo‘yicha inspektor**

“3” 11 2024 yil.

A.B.Olmasov